

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10564865>

G`ulomjonova Ziyoda A`zamjon qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti

2-bosqich magistr

Annotatsiya: *Talabalarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish ularga o`z kasbiy majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishda, olgan bilimlaridan, tajribalaridan, yordam beradi. Maqolada talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish afzalliklari borasida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so`zlar: *muloqot, madaniyat, ijtimoiy, shaxs, ijtimoiy, intellekt, ijtimoiy sotsiometrik, qadriyat, kommunikativ, savodxonlik, kompetentlik, shaxsiy me`yorlar, shaxs.*

Muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ma`naviy yuksalish maqsadida bo`lgan kishining hohishiga bog`liq bo`lib, tashqi emas, insonning ichki jarayoni bo`lib o`rtaga tushadi. O`z navbatida, ma`naviy darajani yuksaltirish, madaniyatni mukammallashtirish, zamonaviy hayotning moddiy va ma`naviy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy va ma`naviy qadriyatlarning devolvatsiyasida o`z aksini topgan salbiy ko`rinishlarni bartaraf qilishda, jamoat ishlariga qiziqishning so`nishi, ma`naviyatsizlik va skeptitsizm holatlarini oldini olish barkamol shaxsni tarbiyalashning zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Ta`lim oluvchining shaxsiy rivojlanganlik darajasining ko`rsatgichi bo`lib, uning shaxsiy madaniyatining rivojlangan darajasi tushuniladi va bundan maqsad shaxsning kasbiy va malakaviy yuksalishi hisoblanadi. Bunda, madaniyatning rivojlanishi nomlari qayd etilgan xususiyatlar bilan kifoyalaniq qolmaydi, ammo ular kasbiy tayyorgarlik sharoitida tizim yaratuvchi omil vazifasini bajaruvchi asosiy belgi dominanta bo`lib hisoblandi. Ma`naviy ehtiyojlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat, madaniy makonni (maydonni) tizimlashtiradi, bu esa o`z navbatida, doimiy ravishda kengayib boradi, shu bilan bir qatorda shaxsiy yuksalish imkoniyatini amalga oshirishga va ma`naviy dunyoqarash yo`nalishlarini to`g`ri tanlashga yordam beradi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosi shaxsning go`zallikka bo`lgan individual intilishi, ohang tanlashi, mazmuni, o`zini tutishi, boshqalar bilan muloqot darajalari bilan uyg`unlashadi. U shaxsning estetik madaniyatining rivojlanganligi bilan kompleks ravishda o`zaro aloqadorlikda bo`ladi. Bundan tashqari, kommunikativ mexanizmning samarali tarbiyaviy ta`siri anglash va bilishning asosi sifatidagi ilmiy va gumanitar bilimlarning prezentativligi orqali o`zaro hamkorlikdagi sub`ektlarning dialogik munosabatlar sharoitidagina samarali hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur jarayon, kommunikativ savodxonlik va kompetentlik, shaxsiy me`yorlar, shaxsning umumiy madaniyati asosida to`plangan bilim, malakalarining rivojlanishiga ham ta`sir qiladi, ijtimoiy rollarni bajarish usullari va qoidalarini egallash maqsadida

tashkillashtirilgan ta'lim va tarbiya orqali kuchayadi, hamda vaziyatlarning talqini, tashkillashtirish maqomiga mos shakllar, hamkorlik o'tadigan manzilning tafsilotlariga bog'liq bo'ladi. Muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usuli faqatgina uning sub'ektlari ochiq emotsional o'zaro ishonch shaklidagi muloqotga kirishishga tayyor bo'lsagina natija beradi. Ular shaxsiy bilimlarini, hayotiy tajribalarini namoyish etishadi, ma'lumotlarni chin dildan qabul qilishadi. Haqiqiy muloqotni, shaxs qadriyatlar va ma'naviy yo'nalishlardan mahrum qilingan, agressivlik muhitida amalga oshirib bo'lmaydi. U bir-biriga ishonch, o'zini mustaqil namoyon eta olish, ma'naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. Bo'lg'usi mutaxassislarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish ularga o'z kasbiy majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishda, olgan bilimlaridan, tajribalaridan, shaxsiy qobiliyatlaridan o'z o'rnida munosib foydalanishda, o'zini doimiy nazorat qilishda va kutilmagan to'siqlarga uchraganda o'z faoliyatini qayta qura olishga yoki muloqot vaqtida har qanday nizolarga duch kelganida uni bartaraf qilishga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: shaxslararo munosabatlar sohasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirish; kommunikativ bilimlar va ko'nikmalar holatini tashxislash, muloqot chegaralarini aniqlash; talabalarining kommunikativ bilim va ko'nikmalarining shakllantirish jarayonini mukammallashtirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish; talabalarda muloqotga oid bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik holatini tashxis asosida tahlil qilish. Mutaxassislarning tizimli tayyorgarligi asosini uzluksiz ta'lim tashkil etishiga qaramay, aynan madaniyatni shakllantirish jarayoni uzluksiz bo'lib, kasbiy mahoratni muvaffaqiyatli egallashini, hamda mutaxassisning yuqori shaxsiy-ijtimoiy mavqega ega bo'lishini ta'minlaydi. Muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mummolarini ko'rib chiqishning yana bir yo'nalishi o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini kirgizish bilan ta'riflanadigan innovatsion yondashuvdir. Innovatsion yondashuvlar jarayonida, bo'lg'usi mutaxassislarning muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida muhim zamonaviy, hayotiy talablarni hisobga olgan holda faoliyatni quyidagi tamoyillar asosida qayta ko'rib chiqish zarur, ya'ni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni, shaxslararo munosabatlar sohasidagi bilimlar, malaka va ko'nikmalarni ishga optimal darajada moslashtirishni, mustaqillikni imkon qadar kengaytirishni, demokratik va gumanitar munosabatlarni shakllantirishni, shaxsiy omilni faollashtirish va boshqa tomonlarini qayta ishlab chiqish. Talablar tizimi doirasida, muloqot madaniyatini samarali shakllanishini va rivojlanishini ta'minlovchi malaka, ko'nikmalarni quyidagicha jaratish maqsadga muvofiq bo'ladi: bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy muloqot amaliyotini egallash maqsadida kommunikativ ta'lim va tayyorgarlikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarligi. Qobiliyatlarni, xususiyatlarni, sifatlarni, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish yoki yaxshilashga yo'naltirilgan treninglar, odatda, ijtimoiy-psixologik treninglar deb belgilanadi. Ijtimoiy psixologik treninglarning asosiy maqsadlari shaxslararo munosabatlarni

yaxshilash va rivojlantirishni ta'minlash; muloqotda va o'zaro munosabatlarda muloqotning bazaviy ko'rsatmalarini shakllantirish va rivojlantirish; shaxsda shaxslararo munosabatning moslashuvchan shakllarini paydo qilish va mustahkamlash; muloqotning qulay usullarini rivojlantirish; insonni faol harakatlarga jalb etish va boshqalar.

Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlari, asosan, bu sohadagi bilimlarning yaqqol yetishmovchiligida talabalarni o'zini o'zi boshqarishning turli xildagi ko'rinishlarida shakllanadi. Bu muammolarni hal qilish doirasida psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar va ta'lim jarayoni tashkilotchilari oldida o'zaro hamkorlikda, barcha kuchlarini muvofiqlashtirgan holda oliy ta'lim tizimi oldidagi vazifani yechish mas'uliyati yuzaga keladi. O'zining tabiatiga ko'ra, u bo'lg'usi mutaxassislarda psixologik va kommunikativ bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini yetarli darajada ta'minlashi zarur, chunki bu malakala va ko'nikmalarni egallash ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarini samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU.2002.(o'quv qo'llanma).
3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO'G'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.
8. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.

11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.

13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.

14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.

15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.